

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLOVCHI BO'LINMALAR HARBİY-  
PROFESSIONAL TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ  
ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

**IMPROVEMENT OF MILITARY-PROFESSIONAL TRAINING OF PUBLIC  
SECURITY UNITS**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistratura tinglovchisi  
Leytenant  
Mirvohidov Behzod Miraziz o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi bo'linmalar harbiy-professional tayyorgarligini takomillashtirish ustuvor hamda dolzarb vazifa hisoblagan holda, ularni tayyorgarligini takomillashtirish, biloim, ko'nikma va mahoratni shakllanishi yuzasidan ayrim mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy-professional tayyorgarlik, jangovar maxsus o'quv dasturi, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, amaliy ko'nikma, mahorat.

**Аннотация:** В данной статье, рассматривая совершенствование военно-профессиональной подготовки подразделений общественной безопасности как приоритетную и неотложную задачу, изложены некоторые соображения по совершенствованию их подготовки, формированию знаний, навыков и умений.

**Ключевые слова:** военно-профессиональная подготовка, специальная программа боевой подготовки, общественная безопасность, обеспечение общественной безопасности, практические навыки, навыки.

**Abstract:** In this article, considering the improvement of military-professional training of public security units as a priority and urgent task, some considerations are presented on the improvement of their training, formation of knowledge, skills and abilities.

**Key words:** military-professional training, special combat training program, public safety, ensuring public safety, practical skills, skills.

O'zbekiston bugun har bir sohasa rivojlanib, o'zining taraqqiyot yo'lida tobora yuksalib, yuksak marralarga erishib bormoqda. So'nggi yillar mobaynida mamlakatimiz hayotida ro'y bergan keng qamrovli islohotlar mamlakatimiz ravnaqi va xalqimizning farovonligiga xizmat qilib, jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda.

Shu bilan birga ayrim horij davlatlariga nazar soladigan bo'lsak, "Harbiy xavf" hamda "Urush" holatlari e'lon qilingan. Bu esa davlatning, harbiy xizmatchilarining jangovar shayligi, matonati va kuch qudratini qo'llay olishi bilangina yakunlanishi

mumkin. Shuning uchun ham xorijiy davlatlar o‘z qo‘sishlari, armiyasini kundan kunga rivojlantirib, harbiy professional tayyorgarligini takomillashtirib bormoqdalar.

Bizning mustaqil, osoyishda mamlakatimizning tinchligini va Vatan himoyasini ta’minlashda jamoat xavfsizligi bo’linmalarining o‘rni juda kata. Bu bo’linmalar Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Qo‘riqlash xizmati bo’linmalari tomonidan quyidagi jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir vazifalarni bajaradilar:

✓ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida barcha zarur choralarni ko‘rishi;

✓ jamoat joylarida, shu jumladan ko‘chalarda, maydonlarda, istirohat bog‘larida, transport magistrallarida, vokzallarda, aeroportlarda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida fuqarolarning xavfsizligini ta’minalashi;<sup>3031</sup>

✓ qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlaydi, huquqbuzarliklarning oldini oladi va ularga chek qo‘yadi;<sup>32</sup>

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni o‘z vaqtida va puxta bajarishni ta’minalash uchun harbiy xizmatchi (xodim)larning harbiy-professional tayyorgarligini yanada takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan


Qurolli kuchlarning davlatga mansubligidan qat'i nazar, jangovar tayyorgarlik 3 bo‘limga bo’linadi:

**Umumiylar harbiy tayyorgarlik** - bu qo‘sishlar turi va Qurolli kuchlar turidan qat’iy nazar, barcha harbiy xizmatchilar uchun zarur deb hisoblangan fanlarni o‘qitish bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuasi. Umumiylar harbiy tayyorgarlikning ayrim turlari harbiy xizmatchilarga harbiy ixtisosligiga qarab, faqat kirish shaklidagi yuzaki shaklda o‘qitiladi.

**Maxsus tayyorgarlik** - harbiy mutaxassislik bilan bog‘liq fanlar va mashg‘ulotlarni chuqur orgatish.

**Operativ tayyorgarlik** - generallar va katta ofitserlarning jangovar tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv va o‘quv tadbirlari majmui hisoblanadi.

Qurolli kuchlar tarkibida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi o‘zining jangovar tayyorgarligini doimiy ravishda shakllantirib borishi hamda uning amaliy qo‘llash uchun yetarli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.



Ushbu jadvalda ko‘rsatilganidek harbiy xizmatchilar o‘quv (xizmat) faoliyati davomida **nazariy bilimlarni** olishadi, agarda ular amaliy jihatda qo‘llanilmasa shunchaki ma‘lumot sifatida ong ostida jamlanib qoladi. Agarda olingan nazariy bilimlar amaliy jihatdan ko‘rib chiqilsa, **amaliy ko'nikma** shakllanadi. Agar amaliy

<sup>30</sup> 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” qonuni

<sup>31</sup> 18.11.2020 yildagi O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” qonuni

<sup>32</sup> 15.06.2022 yildagi O‘RQ-778-sonli “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida” qonuni

harakatlar qayta-qayta bajariladigan bo'lsa, ularning kamchiliklari bartaraf etilib, qo'shimchalar kiritiladigan bo'lsa u xizmat faoliyati davomidagi **mahorat (tajriba)ga** aylanadi. Bu esa harbiy xizmatchilar yoki bo'linmaning ma'lum bir qo'yilgan vazifani shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni puxta, tez va aniq holatda bajarilishini ta'minlab beruvchi yaqqol omil sifatida aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kundagi Milliy gvardiya bo'linmalari oldida turgan dolzarb muammo bu jamoat xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Davlatimiz rahbari **Sh.M.Mirziyoyev** tomonidan Milliy gvardiya bo'linmalariga qator vazifalar qo'yish bilan birgalikda, asosiy vazifa sifatida **Jamoat xavfsizligini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash** qo'yilgan.

**Jamoat xavfsizligini ta'minlash** — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim.<sup>33</sup>

Ushbu vazifalarni bajarish, ya'ni jamoat xavfsizliginini ta'minlash uchun Milliy gvardiya tizimida maxsus bo'linmalar mavjud bo'lib, ular mamlakatni, aholini turli hil tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, inson, jamiyat va davlatni xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat joylarida tartibni saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib. Ularni kundalik faoliyat davomida xizmatdan tashqari ish vaqtida harbiy-professional tayyorgarligini doimiy ravishda takomillashtirib borish ustuvor vazifa sanaladi.

Xulosa: Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi bo'linmalar harbiy-professional tayyorgarligini takomillashtirish ustuvor hamda dolzarb vazifa hisoblagan holda, ularni jangovar maxsus tayyorgarlik dasturiga muvofiq puxta o'qitilishi yuzadan darslarni doimiy ravishda tashkillashtirish va ular ustidan nazoratni kuchaytirish, kerak bo'lsa jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni bajarish davomida yuzaga keladigan holatlar yuzasidan nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarini takomillashtirish yuzasidan mashg'ulotlar tashkillashtirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. 16.09.2016 yildagi O'RQ-407-sonli "**Ichki ishlar organlari to'g'risida**" qonuni
2. 18.11.2020 yildagi O'RQ-647-sonli "**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida**" qonuni
3. 15.06.2022 yildagi O'RQ-778-sonli "**Qo'riqlash faoliyati to'g'risida**" qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni